


# "O'ZKIMYOSANOAT" AJDA NAVRO'Z MUNOSABATI BILAN "ZAKOVAT" INTELLEKTUAL O'YINI O'TKAZILDI

// 17 March 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/zakovat>



"O'zkimyosanoat" Ajda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zakovat" intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Navro'z bayrami munosabati bilan xodimlar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. Unda jamiyatdagi department va boshqarmalar vakillaridan iborat jamoalar ishtirok etishdi. Qiziqarli kechgan bilimlar bellashuvida "Moliyachi-iqtisodchilar" jamoasi 1-o'rinni egalladi. 2- o'rinni esa "Nazoratchilar" va "Texnologlar" guruhlar qo'lga kiritishdi. "Investitsiyachilar" jamoasi esa 3-o'rin sohibi bo'lishdi.

Qiziqarli va ko'tarinki ruhda o'tgan "Zakovat" intellektual o'yinini muntazam ravishda tashkillashtirish maqsad qilindi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**









